miyligidir. Samarqand muhitida bu belgilar jadid matbuotidan boshlab, nazariy darsliklar, navoiyshunoslik va matnshunoslik amaliyotigacha uzluksiz ko‘rinadi.

Maktabning murakkabligi jadid merosi va sovet akademik tizimi o‘rtasidagi ziddiyatli uzviylikda namoyon bo‘ladi. Jadidlar milliy uyg‘onish, maktab va matbuot orqali yangi adabiy tafakkurni yaratdilar; sovet davri ilmiy muassasalari esa uni fan, darslik va kadrlar tayyorlash tizimiga kiritdi. Ayni paytda 20-yillar jadid adabiyoti kuchli tazyiqlar sharoitida rivojlangani ham qayd etiladi [Vohidov, Eshonqulov, 2006, 5-b.]. Shuning uchun Samarqand maktabi na faqat jadid an’anasining davomi, na faqat sovet institutlarining mahsuli; u turli tarixiy, metodologik va manbashunoslik omillari tutashgan murakkab ilmiy hodisadir.

Xulosa. Samarqand ilmiy-adabiy muhiti XX asrning birinchi yarmida o‘zbek adabiyotshunosligi maktabi uchun tarixiy-madaniy va institutsional zamin yaratdi. Bu jarayonda jadid maktablari, darsliklar va matbuot adabiy tanqid hamda yangi nazariy tafakkurning dastlabki maydoniga aylandi, Fitrat, Sa’diy va Ayniy faoliyati esa adabiyotshunoslikni tizimli fan sifatida shakllantirishda muhim bosqich bo‘ldi. Maktabning markaziy ilmiy yo‘nalishlari sanalgan navoiyshunoslik va matnshunoslik mumtoz merosni manbaga tayangan holda o‘rganish madaniyatini kuchaytirdi. Folklorshunoslikka oid dalillar nisbatan cheklangan bo‘lsa-da, xalqchillik va epik merosga ko‘rsatilgan e’tibor umumiy adabiyotshunoslik tafakkurining kengayganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, Samarqand adabiyotshunoslik maktabi jadid merosi, sovet davri akademik tizimi, qo‘lyozma meros va ilmiy avlodlar uzviyligi kesishuvida shakllandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Azimov J. Toward modernity through newspapers... The University of Alabama, 2021.

(2). Egamqulova N. XX asr boshlaridagi adabiyot nazariyasiga doir ilk manba. Modern Science and Research. 2024, Veb-sahifa.

(3). Ilmiy maktablar. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti. Veb-sahifa.

(4). Quvvatova, D., O‘roqova, N. Yangi o‘zbek adabiyoti. O‘quv qo‘llanma, D.Quvvatova, N.O‘roqova. Buxoro, 2022, 256-bet.

(5). Sirojiddinov Sh. Navoiyshunoslik. Toshkent, 2018.

(6). The role of environment in sustainable development of Samarkand. Tashkent, 2021.

(7). Ubaydullaeva S.F., Karimov N.R. The Role of Samarkand as a Center of Islamic Scholarship and Cultural Exchange in Medieval Uzbekistan. SciTePress. 2023, p. 1220–1224.

(8). Umuro H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik, Toshkent, A.Qodiriy nashriyoti, 2004, 264-bet.

(9). Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, 2006.

(1). Xusanov J.A. The formation of national press in Turkestan and Jadidism. Innovative Development in Educational Activities. 2025, vol. 4, Issue 1, p. 25–29.

Bekberganova Mariya Dosberganovna (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti “Qoraqalpoq adabiyoti” kafedrasi professori, filologiya fanlari nomzodi)

A.TAJIMURATOV – KO‘P QIRRALI ISTE’DOD EGASI

Annotatsiya. *Bu maqolada shoir va yozuvchi A.Tajimuratovning ijodi tahlil qilingan. Yozuvchi lirikasining va ijodiy uslubining o‘ziga xosligi tahlil qilingan. A.Tajimuratov sheriyatining mavzusi Vatan mavzusi, ota makonning go‘zalligi sherlarida lirizm, farzandlik muhabbat «Súyemen, seni Respublikam!» ("Sevaman seni, Respublikam"), «Aqdárya» ("Oqdaryo") «Aspantay batır» («Aspantay batır»), «Balalıǵımdı saǵınıp» ("Bolaligimni sog‘inib"), «Aydınlar» ("Oydinlar") va boshqa she’rlari tahlilga olingan. A.Tajimuratovning Orol dengiziga bag‘ishlab yozgan she’rlar turkumi, ulardagi Orol dengizining obrazi sho-irning poetik mahorati badiiy mazmunini anglatadi. A.Tajimuratovning ijodidagi sujetli lirikasi haqida so‘z yuritiladi. Shoirning «Sıńǵırlawıq» ("Singirlovchi") Sharq ertagi motivida yozilgan liro-epik asari tahlil qilinadi. Shuningdek, A.Tajimuratovning nasriy asarlari “Erkinlik samalı” ("Erkinlik shamoli"), “Ushırasıw’’’("Uchrashuv"), “Sarkoplı batır” ("Sarkopli botir), “Wákiller” ("Vakillar") “Ahay awılında” ("Ahay qishlog‘ida") asarlari tahlilga olinadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy obraz, mavzu, uslub, mahorat, badiiy xayol.*

А.ТАДЖИМУРАТОВ – ОБЛАДАТЕЛЬ МНОГОГРАННОГО ТАЛАНТА

Аннотация. *В данной статье анализируется творчество поэта и писателя А.Тажимуратова. Проанализированы особенности лирики и творческого стиля писателя. Тема поэзии А.Тажимуратова – тема Родины, красота родного края, лиризм в его стихах, сыновняя любовь. Проанализированы такие стихотворения, как «Сүйемен, сени Республикам!» ("Я люблю тебя, моя Респуб-*

лика"), «Ақдәрья», ("Акдарья"), «Аспантай батыр» «Аспантай батыр»), «Балалығымды сағынып» ("Скучая по детству"), «Айдынлар» («Айдынлар») и другие. Цикл стихов, посвящённый Аральскому морю, создает поэтический образ моря. Художественное содержание этих стихотворений свидетельствует о высоком мастерстве поэта. В данной статье анализируется сюжетная лирика в творчестве А.Тажи-муратова. Проанализировано лиро-эпическое произведение поэта «Сынгырлаўық» («Звонок»), созданное по мотивам восточной сказки. Кроме того, проанализированы прозаические произведения А.Тажимуратова, такие как "Еркинлик самалы" ("Ветер свободы"), "Ушырасыў" ("Встреча"), "Саркоплы батыр" ("Батыр из Саркопа"), "Ўәкиллер" ("Представители"), "Аҳай аўылында" ("В кишлаке Ахай").

Ключевые слова: *художественный образ, тема, стиль, мастерство, художественный вымысел.*

A.TADZHIMURATOV – A MAN OF MULTIFACETED TALENT

Annotation. *This article analyzes the lyrics of the poet and writer A.Tajimuratov. The features of the writer's lyrics and creative style were analyzed. The theme of A.Tazhimuratov's poetry is the theme of the Motherland, the beauty of the native land, the lyricism in his poems, and filial love. Poems such as "Súyemen seni Respublikam"" were analyzed. ("I Love You, My Republic"), "Aqdárya" ("Akdarya"), "Aspantay batır" ("Aspantay Batyr"), "Balalıg'ımdı sag'ınıp" ("Missing My Childhood"), "Aydınlar" ("Bright"), and others. The cycle of poems dedicated to the Aral Sea creates a poetic image of the sea. The artistic content of these poems testifies to the poet's high level of skill. This article analyzes the narrative lyrics in A. Tajimuratov's work. The poet's lyrical work "Sıng'ırlawıq" ("The Bell") based on Eastern fairy tales are analyzed. Additionally, A. Tajimuratov's prose works such as "Erkinlik samalı", ("The Wind of Freedom"), "Ushırasıw" ("Meeting"), "Sarkoplı batır" ("Sarkop Batyr"), "Wakiller" ("Representatives"), and "Ahay awılında" ("In the village of Akhay") were analyzed.*

Keywords: *artistic image, theme, style, mastery, artistic fiction.*

Kirish. A.Tajimuratov 1930-yil 5-mayda Mo'ynoqda Oqdaryo qishlog'ida tug'ilgan. 1946-yili u Xo'jaylidagi peduchilisheni tugatib, maktabga o'qituvchi, "Yosh leninchi" gazetasida bo'lim mudiri, tuman gazetasida muharrir bo'lib ishlaydi, so'ngra pedinstitutni tugatib, radioeshittirish qo'mitasida, «Jetken-shek» gazetasida muharrir, Yozuvchilar uyushmasi raisi, N.Davqarayev nomidagi tarix, til va adabiyot institutida ilmiy xodim, Qoraqalpoq davlat pedinstitutida o'qituvchi, O'zbekiston Pedagogika ilmiy tadqiqot institutining Qoraqalpog'iston filiali direktori lavozimlarida ishlagan.

A.Tajimuratov 1966-yili "Qoraqalpoq xalq qo'shiqlari" degan mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Uning asarlari 50-yillarning boshlarida nashr etila boshladi. Yozuvchining «Paraxatshılıq kepterleri» (1957), «Eń qadirli sózler» (1959), «Gúrrińler» (1960), «Sarkoplı batır» (1962), «Zarlıq hám Barlıq» (1967), «Sheshiwshi háwli» (1968), «Hákke qayda» (1971), «Maqset» (1974), «Aydınlar» (1976), «Sulıwxan» (1980) nomli she'riy va nasriy kitoblari bosilib chiqdi.

Folklorist olim "Qoraqalpoq xalq qo'shiqlari" (1965) degan monografiya tayyorlab, unga kirish so'z yozdi, professor Q.Maqsetov bilan birga talabalar uchun "Qoraqalpoq folklori" degan darslikni yozishga qatnashdi.

A.Tajimuratov R.Tagorning «Qıyralıw», Abdulla Qahhorning «Shappattay qız», Sh.Aytmatovning «Qızıl shalǵıshlı dilbarım», S.Ahmad, S.Anorboyev va yana boshqa yozuvchilarning asarlarini tarjima qilgan. Q.Maqsetov, A.Tajimuratov "Qaraqalpaq folkloru" darsligida A.Tajimuratov tomonidan "Qaraqalpaq folklorınıń jıynalıwı hám izertleniwi tariyxınan", "Qaraqalpaq xalıq qosıqları", "Aytımlar" "Aytıs", "Tolg'awlar", "Jumbaq hám jańıltpashlar " bo'limlari yozilgan.

Metodologiya. Tipologiya masalalari G.Gukovskiy, B.Jirmunskiy, V.Propp, A.Smirnov, A.Skaftimov, N.Konradlarning ishlarida tadqiq etilgan. Pospelov G.N. adabiy turlar va janrlarning tipologiyasi haqida o'z fikrlarini bildirgan: ...Badiiy adabiyotga uning tur va janrlar tipologiyasi nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, har bir asarda hamisha uning tur mazmunining xususiyatlari, tur ifoda shakli va uning janr mazmunining xususiyatlari, ba'zan esa janr ifoda shaklini ham farqlash lozim [7;152–153-b.].

Epik janrning shakllanib rivojlanishida uning shakllari bo'lgan ocherk, hikoya, qissa, roman o'rtasidagi tipologik aloqalarni ko'rish mumkin. A.Tajimuratov, dastlab, lirik she'rlar bilan badiiy adabiyotga kirib keladi.

Tadqiqot va natijalar. O'zining ijodiy uslubiga ega shoir A.Tajimuratovning she'riyatida markaziy o'rinda tugilgan yer, ota makon go'zalligi turadi. «Súyemen, seni Respublikam!», «Áy quyash!», «Aqdárya», «Aspantay batır», «Balalıg'ımdı sag'ınıp» Vatanni kuylagan sherlari chuqur lirizm, farzand sog'inchi, farzandlik muhabbat, tug'ilgan qishloq bilan faxr tuyg'ulari shu poetik satrlarda yangraydi:

«El keldi boyıńa, tastı dármanıń,
Sen haǵlasan boldı, shiyrin-pal nanım,
Inisiseń, Ullı Ámiwdáryanıń,
Babalar mákanı, sálem Aqdárya». («Aqdárya») [1;14-b.]

«El perzenti Aspantayday batırıń,
Beline minipti ala atınıń,
Nayzasın gózenip, semserin siltep,
Ústine qulattı jawdıń shatırın.

Neshshe erler batırlarǵa eripti,
Dushpanǵa ólimshi soqqı beripti,
Kóp jıldan soń Aqdáryanıń boyına,
Márt Aspantay xalıqtı baslap kelipti». («Aspantay batır») [1;16-b.]
«Balalıǵımdı saǵınıp»:
«Kamalǵa keltirgen ul-qızlarıń kóp,
«Shege» awılı menińawılım edi.
Shańlaqtaǵı topıraq balalıǵımda,
Oynaǵan «qawın-qawınım» edi»...

Unaydı, Qırımnıń jaǵalawları,
Bult kushkan Kavkaz biyik tawları,
Unaydı, Sibirdiń tıń-partawları,
İssık kól hám Baltikanıń boyları. [1;19-b.]

Har bir badiiy so‘z egasining bir asari uning nomini abadiylashtiradi. Ajiniyoz shoirni aytganda «Ellerim bardı», Berdaq shoirni aytganda «Xalıq ushın», A.Tajimuratovni aytganda «Aydınlar» sheri birinchi bo‘lib yodga tushadi. A.Tajimuratovning sherlari, poemalari, hikoyalari, qissa, romanlari bor. Biroq, «Aydınlar» uning ijodida alohida o‘rin tutadi. Bu qo‘shiq 60 yillarning oxirida paydo bo‘lgan. Shoir A. Tajimuratov «Aydınlar» qo‘shig‘i bilan Vatan obrazini yaratdi. Birinchi navbatda, eldan uzoqda, chet elda o‘qib yurgan yoshlar, talabalar, aspirantlar Qoraqalpog‘istondan ekanligini sezib yig‘ilganda shu qo‘shiqni aytib yurgan. «Aydınlar» ona-Vatanning ramzi, timsoli bo‘ldi. Shuning bilan birga, «Aydınlar» sheri osmon moviy tiniq suvli, keng, uchi qirg‘og‘i yo‘q Orol dengizining obrazi bo‘ldi. Orol dengiziga bag‘ishlab shoir A.Tajimuratov bir turkum she’rlar yaratgan: «Assalam», «Aqquw», «Shaǵala», «Mulayım Aral», «Asaw Aral», «Sen bolmasań Aralım», «Araldıń tolqınları», «Ǵazlar ushar». Orol dengizi uning obrazi shoirga ilhom bergan, shoir dilini ilhomlantirgan.

A.Tajimuratov badiiy obraz yaratishning ustasi. "Oydinlar" qo‘shig‘ini ijro etganda tinglovchilarning ko‘z oldiga dengiz, baliqchilarning qayiqlari, motoflyugalar, baliqqa to‘la seynerlar keladi. Shuning bilan birga, tug‘ilgan yurtning sog‘inchi, uning poetik obrazi shu qo‘shiqni ijro etganda seziladi.

Shoirning lirik sherlari chuqur g‘oyaviy mazmunga, salmoqqa ega. Misol sifatida «Sen sulıw»sherini olib qaraylik. «Kim sulıw, ne sulıw», deb so‘raydi lirik qahramon. Osmondagi yulduzlar, yaltiragan suv tubida qunduzlar, Orol go‘zal, maral go‘zal, yil ichida bahor go‘zal, yoz go‘zal, ko‘p narsa go‘zal, biroq, «Jas bóbekti háyyiw aytıp jubatqan, O, anajan bárinen de sen sulıw» degan xulosaga keladi, lirik qahramon. Ushbu so‘nggi satrlar butun sherning badiiy mazmunini berib turibdi.

A.Tajimuratov poeziyani badiiy so‘zning ulug‘vorligini, so‘z gavhari ekanligini yuqori baholaydi. «Qosıq» deb atalgan asarida shoir bunday kuylaydi:

«Qosıq sózdiń oynaǵı,
Ol kewilli oqılar,
Qosıq kewil qaymaǵı,
Shadlı nama toqılar.

Qosıq degen gáwhar tas,
Keń jáhándi bezeydi.
Qosıq peri, qálem qas,
Ol-ómirdi sózleydi. [1;28-b.]

A.Tajimuratov qoraqalpoq bolalar adabiyotining rivojlanishiga ham o‘z hissasini qo‘shdi. «Bala menen top», «Qarlıǵash», «Gúbelek», «Paraxatshılıq kepterleri», «Mektebime albom», «Baqshada» va yana boshqa qo‘shiqlari bolalarga atab yozilgan. Shoir asarlari tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

A.Tajimuratovning ijodida syujetli lirika ham bor. Sujetli lirikasiga «Zarlıq hám Barlıq», «Toyıp ta sekirdi, tońıp ta sekirdi», «Pıshıq penen iyt qalay dushpan bolǵan», «Sıńǵırlawıq» asarlari bor. «Sıngırlawıq» asari sharq ertagi motivida yozilgan. Ichidagi qahramonlar: podsho Kunkar, vazirlari Jayhun, Sunkar, Javhar, Gavhar, beshinchisi Singarlovuq.

Vazir Jayhun sug‘orib cho‘listonni, tarmoq-tarmoq ariq qazdirgan. Ikkinchisi Sunkar vazir uy qurdirib qavat-qavat, Baland-baland minora qurgan.

Wázir Jáwhar úshinshisi,
Er bahadir eń kúshlisi,
Dushpanǵa azıw tislisi,
Qıraǵı er bolg‘an eken.
Gáwxar wázir tórtinshisi,
Oy-sezimli, bilimlisi,
Aqıllısı, ilimlisi,
Jurtqa bilim taratadı.

Birinshi Jáwhardı óltiredi, ekinshi Jayhundi óltiredi, Sunkar ushıp ketedi.

Biraqta ólmedi Gáwhar,
Qollanıp ilimdi dárkar,
Dárhal kózden ǵayıp boldı.
Gáwhar shax qasına keldi, Eki awız sóz sóyledi.
Basqalarǵa sezdirmesten, Kóylek tiktim sizge arnap,

Gáwhardıń polattan tikken kóylegi menen shax Sıńǵırlawıqtıń atqan oǵınan aman qaladı.

«Qápelimde bále taptı,
At ayaǵın quwbas qaqtı
At ham patsha awnap jattı».
Orınlandı shax buyrıǵı,
Kúdden ósimlik kógerdi,
Yaki onı mal jemeydi,
Ósimlik eken demeydi,
Atı onıń Sıngırlawıq. [1;128–152-b.]

A.Tajimuratov nasriy asarlarning ham muallifi. Yozuvchining “Erkinlik samalı” romani “Ushırasıw”, “Sarkoplı batır”, “Wákiller”, “Sheshiwshi háwli” qissalari bilan “Ahay awılında”, “Áshkaralang‘an jin”, “Jezde”, “Sereniń ájeli” va h.k. hikoyalari bor.

“Erkinlik samalı” romanining sujeti XX asrning boshlaridagi to‘ntarishdan oldingi qoraqalpoq qishloqlarining turmushini tasvirlashga bag‘ishlangan. Qishloq odamlarining qiyin turmushi, bosmachilarning yosh yigit-qizlarni asirga olib haydab ketishi, yozuvchi ushbu romanda o‘sha davrning tarixiy haqiqatini mahorat bilan bera olgan. «Qurama» qishlog‘ida boylar yo‘q" deb yozadi muallif. Odamlarning bari Salohaddin eshonga ishonadi. Masalan: Nag‘mat bobo, dastlab, Salohiddin eshonga astoydil ishonadi, keyin voqealar davomida uning dunyoqarashi, ong-shuuri o‘zgaradi [1]. Qahramonlar To‘lg‘anoy, Sapura, Enejon, Ayjonlarning ong-shuurining qishloqda bo‘layotgan voqealar asosida o‘zgarib borishi ishonarli berilgan. Bosh qahramon Marat bilan Biybigulning bosmachilar qo‘liga asir tushishi, ko‘p qiyinchiliklarni boshidan kechirishi, mustaqillik zamonni orzu qilishi romanda voqealar ketma-ketligida tasvirlash orqali beriladi. A.Tojimuratov ushbu romanda mazmunni chuqurroq ochish uchun xalq afsona-rivoyatlari, xalq qo‘shiqlaridan foydalangan.

Yozuvchining “Ushırasıw” nomli qissasida yana tarixiy voqealar tilga olindi. Dastlab, bu qissaning mazmuni "Umr" deb atalgan hikoyasida beriladi. Keyin uni kengaytirib "Uchrashuv" nomli qissani yozadi. Bu qissada 1933-yilgi voqealar tasvirlangan. Bu asar qurilishi epilogdan boshlanadi. Epilogda chol bilan kampir Nukusning bir ko‘chasida uchrashadi. Ular avval bir-birini yaxshi taniydigan bo‘ladi. Ochlik yillari Murtazo xotini va qizi bilan Qozog‘istondan Qo‘ng‘irot shahri yaqiniga keladi. Ularning oldidan yosh yigit Davlatmurod chiqadi. Uyiga olib boradi. Davlatmurodning ota-onasi Murtazoning xonadoniga yordam beradi. Davlatmurod bilan Biybisara orasida muhabbat paydo bo‘ladi. Lekin taqdirning yozgani bilan ular birga bo‘la olmaydi. Biybisara onasi ikkovi bir kunda ko‘chib ketib qoladi. Bu qissada yozuvchi "Qurama" degan elning odamlarining mehmondo‘stligi, pokligini ko‘rsatish bilan birga omborchi Xalmuratning past-

kashligi, vijdonsizligini tasvirlab beradi. Xolmurod tufayli Sirga qizini olib boshqa yoqqa koʻchib ketishga majbur boʻladi.

A.Tajimuratovning "Sarkoplı batır" nomli qissasi Ikkinchi jahon urushining qahramoni Oʻrozboy Jumaniyozovga bagʻishlangan. Bu qissa hujjatli asar xarakteriga ega. Oʻrozboy Jumaniyozovning yoshlik hayotidan boshlab, uning Ikkinchi jahon urushi davridagi qilgan jasorati, mardligi badiiy tasvirlangan.

A.Tajimuratovning bundan boshqa povestlari bor. "Vakillar" qissasi qishloq xoʻjalik hayotiga bagʻishlangan boʻlsa, "Hal qiluvchi" qissasi chorvadorlar hayotidan soʻz yuritadi. "Ahay qishlogʻida" deb nomlangan hikoyalar toʻplamida tarixiy mavzu, kundalik hayot, XX asrning 30–50-yillaridagi ijtimoiy hayot voqealari soʻz yuritilgan. A.Tajimuratov ushbu hikoyasida Orol dengizining poetik obrazini jonlantirish vositasi bilan bera olgan. “Shaǵala shańqıldaydı. Quw sıńsıp, ǵazlardıń dizbegi toparlasqan úyrekler órden ıqqa ushıp júr. Keshe jaǵa menen arpa alısıp áwpildep atırǵan teńiz házir ǵana jańa shıqqan kúnge ayrıqsha móldir kózi menen qarap tur.” [4.8]

Xulosa. A.Tajimuratov mohir lirik shoir boʻlish bilan birga, nasriy asarlar yaratishda ham badiiy iste’dod egasi ekanligi malum. U oʻz tugʻilgan erini, Vatanini lirik asarlarida yuksak darajada pafos bilan kuylagan boʻlsa, nasriy asarlarida ham oʻsha vatanparvarlik gʻoyalari chuqur lirizm, falsafiy yondashuv bilan beriladi.

She’rlarida lirik qahramonning ichki kechinmalari, oʻylari, his-tuygʻulari aniq bir manzaraga bogʻliq holda aks etadi. A.Tojimuratovning epik asarlarida ma’lum bir vaqtda sodir boʻlayotgan voqealar, ularga odamlarning aralashuvi, inson xarakterining shakllanishi, ong sezgisining oʻsib rivojlanishi bayon etiladi. Qoraqalpoq adabiyoti tarixida epik janrning shakllarini rivojlantirishda yozuvchi A.Tajimuratovning qoʻshgan salmoqli hissasi bor. Shuningdek, epik janr shakllarining transformatsiyaga oʻtishi: hikoyaning qissaga aylanishi, ocherkning romanga oʻzgarishini muallifning "Ómir" ("Ushrasıw"), "Sarkoplı batir" ("Erlik") asarlari misolida koʻrish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

(1). Тажимуратов Ә. Айдынлар. Нөкис, “Билим”, 2020.

(2). Тажимуратов Ә. Еркинлик самалы. Нөкис, “Қарақалпақстан”, 1992.

(3). Тажимуратов Ә. Гүрриңлери. Нөкис, “Қарақалпақстан”, 1960.

(4). Тажимуратов Ә. Саркопли батыр. Нөкис, “Қарақалпақстан”, 1962.

(5). Тажимуратов Ә. Аҳай аўылында. Нөкис,”Қарақалпақстан”, 1984.

(6). Járimbetov Q., Genjemuratov B. Ádebiyat teoriyası. Tashkent, “Sano-standart” baspası, 2018.

(7). Поспелов Г.Н. Типология литературных родов и жанров. В книге “Вопросы методологии и поэтики”, М., изд-во МГУ, 1983.

Mavlanova Gulnigor Baxriddin qizi (Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti; mavlanova.gulnigor@bk.ru)

VIRJINIYA VULF IJODINING O‘RGANILISHI

Annotatsiya. *Virjiniya Vulf Viktoriya davri adabiyotining qat’iy qoliplaridan voz kechib, inson ongi tadqiqiga e’tibor qaratish orqali XX asr adabiyotida tub burilish yasadi. U “ong oqimi” kabi ilg‘or badiiy uslublar yordamida vaqt, xotira hamda ruhiy kechinmalarning o‘zgaruvchanligini mahorat bilan tasvirladi. Yozuvchining bu kashfiyotchilikka asoslangan ijodi modernistik nasr taraqqiyotini butunlay o‘zgartirib yubordi. Ushbu maqolada shu haqida fikrlar yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Virjiniya Vulf, ong oqimi, modernism, Viktoriya davri, ichki voqelik.*

ИЗУЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА ВИРЖИНИИ ВУЛЬФ

Аннотация. *Вирджиния Вулф произвела переворот в литературе XX века, отказавшись от строгих канонов викторианской эпохи и сосредоточив внимание на исследовании человеческого сознания. Используя новаторские литературные техники, в частности "поток сознания," она мастерски запечатлела текучесть времени, памяти и психологических переживаний. Новаторство писательницы полностью изменило вектор развития модернистской прозы. Данная статья посвящена осмыслению этих идей.*

Ключевые слова: *Вирджиния Вулф, поток сознания, модернизм, викторианская эпоха, внутренняя реальность.*

A STUDY OF THE WORKS OF VIRGINIA WOOLF

Annotation. *Virginia Woolf brought about a profound shift in twentieth-century literature by rejecting the rigid conventions of Victorian literature and focusing on the exploration of the human consciousness. Using pioneering literary techniques such as "stream of consciousness," she skillfully*